

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14964352>

MAKTABGACHA TA'LIMDA AQLIY TARBIYA

Aminjanova Asaloy Qadamboy qizi

Buxoro davlat pedagogika inistituti

Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi

3- bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda aqliy tarbiyaning o'rni haqida so'z yuritilgan. Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish haqida fikrlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: aql, aqliy rivojlanish, maktabgacha ta'lim, tarbiya, aqliy tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka.

Annotation. This article talks about the importance of intellectual education in raising preschool children to become mature individuals in all aspects. This article presents ideas about the proper organization of mental education for children of preschool age.

Key words: mind, mental development, preschool education, education, mental training, mental work, knowledge.

Аннотация. В данной статье говорится о значении интеллектуального воспитания в воспитании ребенка дошкольного возраста как полноценно зрелой личности. В статье показаны представления о правильной организации психического воспитания детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: разум, умственное развитие, дошкольное образование, воспитание, умственная подготовка, знания, умения.

Aql – bilish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Hozirgi davr talablarini inobatga olgan holda, *zamonaviy ta’lim tizimi uchun aqliy tarbiya muammosi juda muhim masalalardan biri sanaladi. Bu davrda faol aqliy faoliyat qobiliyatni shakllantirish vazifasi birinchi o‘ringa chiqadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tarbiyasi sohasidagi yetakchi mutaxassislardan biri N.N.Poddyakov shunday ta’kidlaydiki, hozirgi bosqichda bolalarga an’anaviy aqliy ta’lim tizimida bo‘lgani kabi, to‘liq bilimga intilmasdan, haqiqatni bilish kalitini berish kerak. Bola shaxsining to‘la-tokis rivojlanishi axloqiy, aqliy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi bilan belgilanadi. Aqliy ta’lim nafaqat bilim va aqliy faoliyat usullarini o‘zlashtirish, balki bola shaxsining ma’lum fazilatlarini ya’ni bilish jarayonlarini, qobiliyatlarini shakllantirish vazifasini ham bajaradi.*

Aqliy rivojlanish - bu fikrlash, tasavvur, tafakkur, hayol, idrok jarayonlarida yoshga qarab va atrof-muhit ta’sirida, bolaning o‘z tajribasida sodir bo‘ladigan sifat va miqdor o‘zgarishlar majmuidir.

Aqliy tarbiya — bu aqlni rivojlantirish maqsadida yoshlarga muntazam va maqsadga muvofiq pedagogik ta’sir ko‘rsatish. U yosh avlodning insoniyat to‘plagan bilimlar, malaka va ko‘nikmalarda, o‘z ifodasini topgan ijtimoiy-tarixiy tajribalarni egallashning rejali jarayoni sifatida ro‘y beradi. Bu ta’sir kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta’minlovchi turli xil vositalar, metodlar, sharoitlar yaratishni o‘z ichiga oladi. Odamning aqli, uning aqliy rivojlanishi, bilish jarayonlarining rivojlanishi, bilimlar hajmi, xususiyati va mazmunida namoyon bo‘ladi. Ular aqliy faoliyatning qay darajada jo‘shqinligida, mustaqil bilishga intilishda namoyon bo‘ladi. Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma’lum maqsadga qaratilgan bo‘lishini talab etadi. Insonning aqli uning asosiy faoliyatida yani o‘qishida, ishida, hayotida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi. Aqliy tarbiyasi shakllangan, o‘tkir zehni, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar ya’ni komil inson deb ataydilar.

Donishmandlik - bu donolik. Donolik insonning eng buyuk va oliyjanob fazilatidir. Donolik shunday bir noyob ne’matdirki, u har kimga ham nasib

etavermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalq ichida «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas», - deyiladi. Odam paydo bo'lgandan to hozirgi zamongacha yetishib chiqqan buyuk olimlar, shoir-u fozillar, yozuvchilarning barchasi o'zlari egallagan bilimlari orqali o'z zamonasining e'tiborli komil kishilari darajasiga ko'tarilganlar. Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Ali Ibn Sino, Mabmud Qosbg'ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar, g'arb olimlaridan Yan Amon Komenskiy, K.D.Ushinskiy, J.J.Russo va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar. Tarixan ta'lim-tarbiya maxsus inson faoliyati sifatida shakillanib borish barobarida, ta'lim-tarbiya yakunida tarbiyalanuvchining sifatlari, yani ta'limiy maqsadlari ham aniqlanib boriladi. Xitoyning Samarqanddagi elichisi Vey Tszining hisobotlarida: «Samarqand aholisi mohir savdogarlardir. O'g'il bola besh yoshga to'lar ekan, unga savod o'rgata boshilaydilar», - deb qayd qilingan. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ham ta'lim-tarbiya, axloq-odob masalalariga alohida e'tibor berilgan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash vazifalarini jamiyatimizning ijtimoiy talablariga va insonning aqliy rivojlanish mohiyati va tabiatiga asoslanib ishlab chiqadi.

Aqliy tarbiyaning asosiy vazifalari:

1. Bolalar hayoti davomida duch keladigan tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlarini, ilmiy qarashni shakllantirish.
2. Aqliy faoliyat, bilish jarayonlari va qobiliyatlarini, iqtidorlarini aqliy jarayonning har xil turdagi usullarini rivojlantirish.
3. Mustaqil bilish qobiliyatlarini, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.
4. Aqliy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

Aqliy rivojlanish - o'qituvchilarning aqliy kuchlarni rivojlantirish va bola haqida fikrlovchilar, aqliy harakatlar va kognitiv qobiliyatlar tizimini shakllantirish bo'yich maqsadli faoliyati.

Bola rivojlanishiga aqliy tarbiya bilan bir qatorda bilish jarayonlari ham tasir o'tkazadi. Masalan: bola olmani yaxlit bir buyum tarzida tasavvur qilishi uchun

birdaniga bir nechta analizator: ko'rish, sezish va hid bilish analizatorlaridan foydalanadi. Analizatorlar bir vaqtning o'zida birdaniga ishlashi buyumning xossasi va belgilarini aniqroq hamda to'laroq bilish imkonini beradi. Shuning uchun katta yoshdagi kishilar bolani ilk yoshlik chog'idan boshlaboq, aqliy jihatdan to'g'ri tarbiyalash maqsadida buyumlarni ko'proq analizatorlar yordamida idrok qilishga imkon tug'dirishlari, analizatorning rivojlanishiga, yani bola sensor madaniyatiga alohida e'tibor berishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Andreev V.I. Pedagogika: Proc. ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish kursi / V.I. Andreev - 2-nashr. - Qozon: "Innovatsion texnologiyalar markazi", 2010 - 608 b.
2. Anikeeva N.P. O'yin ta'limi. M.: Eksmo, 2008. - 322 b.
3. Belkin A.S. Yosh pedagogikasining asoslari: Prok. talabalar uchun nafaqa. yuqoriroq ped. darslik bosh / A.S. Belkin - M.: Akademiya, 2008. - 192 p.
4. Blonskiy P.P. Xotira va fikrlash: Kitobda. sevimli. aqldan ozgan. ishlab chiqarish. - M.: Oliy maktab, 2011. - 404 b.
5. Bojovich L.I. Tanlangan psixologik ishlar / Ed. DI. Feldshteyn. M.: MPSI, 2014. - 710 b
6. Bojovich L.I. Shaxs va uning bolalik davrida shakllanishi. M.: Vlados, 2009. - 512 p.
7. Bondarenko A.K., Matusik A.I. Bolalarni o'yinda tarbiyalash. M.: Akademiya, 2009. - 256 b.
8. Bordovskaya N.V., Rean A.A. Pedagogika: Universitetlar uchun darslik / N.V. Bordovskaya, A.A. Rean - Sankt-Peterburg: Piter, 2008. - 304 p.
9. Venger L.A. Rolli o'yin va bolaning aqliy rivojlanishi // O'yin va uning maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishidagi roli: Sat. ilmiy ishlar. - M.: MGU, 2008. - 127p.
10. Vygotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi // Sobr. t.: 6-jildda M.: Logos, 2009. - 630 b.
11. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya//Psixologiya: klassik asarlar. M.: MGU, 2010. - 710 b.
12. Gafitulin T.M. Bolaning o'yin va shaxsiyatini rivojlantirish // Pedagogika + TRIZ: Sat. o'qituvchilar, o'qituvchilar, ta'lim menejerlari uchun / Ed. A.A. Jina. - M.: Vita-Press, 2013. - Nashr. 5. - S. 40-44.
13. Jukovskaya R.I. O'yin va uning pedagogik ahamiyati. M.: Aspekt-Press, 2008. - 218 b.